

**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MUSIQA
MADANIYATI VA TEATR SAN'ATINI RIVOJLANISHIDA JADID
MUTAFAKKIRLARINING O'RNI VA ROLI**

Soliyeva Maftunaxon Kaxramonjon qizi

FarDU, Pedagogika-psixologiya va

san'atshunoslik fakulteti

Musiqi ta'limi va san'at

yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur matnda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda teatr san'atining shakllanishi, uning jadidchilik harakati bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Jadid ziyolilari teatrni ma'rifat, savodsizlikka qarshi kurash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida targ'ib etganlar.

Kalit so'zlar: jadid, teatr san'ati, milliy musiqa, janr.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida jadidchilik harakati katta kuch bilan rivojlandi. Bu harakat faqat siyosiy-ijtimoiy sohalaridagina emas, balki madaniyat, san'at, ayniqsa musiqa va teatr san'ati rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jadid mutafakkirlari o'z davrining ilg'or fikrli ziyolilari bo'lib, xalqni ma'rifatli qilish, madaniyatni zamonaviylashtirish, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning ushbu g'oyalari san'at, ayniqsa teatr va musiqa orqali keng targ'ib qilindi.

Jadid mutafakkirlari xalq og'zaki ijodini, maqom san'atini, milliy kuy va qo'shiqlarni o'rganish, targ'ib qilish hamda saqlab qolishga katta e'tibor qaratdilar.

Abdurauf Fitrat — XX asr boshlarida o'zbek jadidchilik harakatining yetakchi arboblardan biri bo'lib, u nafaqat adabiyot, balki musiqa sohasida ham muhim ilmiy ishlar olib borgan. Uning "Shashmaqom" nomli risolasi va maqom san'atiga oid boshqa asarlari o'zbek musiqashunosligining shakllanishida asosiy rol o'ynagan.

Abdurauf Fitrat maqom san'atini chuqur o'rganib, uni ilmiy asosda tahlil qilgan. Uning "Shashmaqom" risolasi va "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927) nomli asarlari o'zbek musiqashunoslik fanining poydevorini yaratgan. Bu asarlarda Fitrat maqomning nazariy asoslari, tarixiy rivoji va estetik xususiyatlarini tahlil qilgan. Fitrat 1921-yilda Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, uning birinchi direktori bo'lgan. U bu maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda, xonandalar) bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etgan. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G'iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etilgan.

Fitratning maqom san'atiga oid ilmiy ishlari o'zbek musiqashunosligi tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning asarlari orqali maqom san'ati ilmiy asosda o'rganilib, uning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Bu ishlar o'zbek milliy musiqasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning "Sharq musiqasi" nomli asari Sharq xalqlari musiqasining nazariy asoslarini tahlil qilgan muhim ilmiy ish hisoblanadi. "Sharq musiqasi" asari ikki asosiy bo'limdan iborat:

1. "Sharq musiqasi" bo'limi: Bu bo'limda Fitrat Sharq xalqlari musiqasining uslubiy farqlari bo'lishiga qaramay, ularning nazariy jihatdan 12 maqom asosida birlashganini ta'kidlaydi. Ushbu yagona nazariya arab istilosidan keyin musulmon Sharqida hukm surgan umumiy ta'lim tizimi tufayli shakllanganini qayd etadi.

2. "Musiqamizning tarixiga bir qarash" bo'limi: Bu qismda Fitrat o'zbek musiqasining tarixiy rivojlanishini tahlil qiladi. U tanbur, rubob, tor, g'ijjak kabi Sharq cholg'u asboblari haqida fikr yuritadi va ularning musiqiy risolalarda qanday tasvirlanganini o'rganadi.

Fitrat musiqa ilmiga nazariy yondashgan va o'tmish musiqa allomalarining musiqiy risolalarini chuqur o'rganish orqali xulosalar chiqargan. U, shuningdek, maqom san'atining tuzilishi, ijro uslublari va estetik me'yorlarini tahlil qilgan. Masalan, u Shashmaqomni olti asosiy maqom — Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari bo'lib, har bir maqom mushkilot (soddagina cholg'u), nasr (qo'shiq bilan cholg'u), ufor (tonish bilan cholg'u)lardan iborat uchga bo'linganini ta'riflaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda teatr san'ati yangi bosqichda rivojlana boshladi. Bu davrda jadidchilik harakati keng quloq yoyib, xalqni uyg'otish, savodsizlikka barham berish, zamonaviy tafakkurni shakllantirish yo'lida turli madaniy vositalardan foydalandi. Shulardan biri – teatr san'ati bo'ldi va bu san'at turi jadidchilik harakati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Teatr san'ati orqali xalqni ma'rifatli qilish, ijtimoiy illatlar ustidan kulish va milliy ongini uyg'otish asosiy maqsad bo'ldi. Turkistonda teatr san'ati xalq orasida ilgari keng tarqalmagan edi. Ammo jadid ziyolilari G'arbdagi teatrlarni o'rganib, bu usul orqali xalqni oson va tez tarbiyalash mumkinligini angladilar. Shundan so'ng maktablarda, jamoat joylarida sahna asarlari qo'yila boshlandi. Bu tomoshalar odamlar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Turkistonda teatr san'ati aynan jadidlar faoliyati tufayli shakllandi. Bu teatrlar orqali ijtimoiy adolatsizlik, johillik, xurofot, ayollar erksizligi kabi muammolar tanqid qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadidlar teatr pyesalari yozib, sahnalashtirdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) – Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, ma'rifatparvar, jurnalist, dramaturg va ijtimoiy arbob bo'lgan. U o'z faoliyati orqali xalqni ilm-ma'rifatga, uyg'onishga, taraqqiyotga chaqirdi. Ayniqsa, teatr san'ati orqali xalq ongini

o'zgartirishga harakat qilgan. Turkiston teatrining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda teatr san'atini boshlab bergan muhim shaxsdir.

U G'arb va Rossiya madaniyatidan ilhomlanib, teatr orqali xalq ongiga ta'sir qilish mumkinligini anglagan. Bu san'atni Turkistonga olib kirgan va birinchi dramatik asarini sahnalashtirgan. Uning "Padarkush" asari orqali boshlangan sahna san'ati xalq ongini uyg'otishga, zamonaviy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan. Behbudiy o'z asarlari bilan o'zbek teatriga ma'rifiy, tarbiyaviy, ijtimoiy ruh olib kirdi va bu san'atni xalq uchun foydali vosita sifatida namoyon qildi. Jumladan, Behbudiyning "Padarkush" asari Turkistondagi birinchi jadid dramalaridan hisoblanadi. 1911-yilda yozilgan "Padarkush" (Otani o'ldirgan) asari o'zbek teatrining ilk namunasi hisoblanadi. Asarda johil, savodsiz farzandning otasini o'ldirishi orqali ilm va tarbiyaning naqadar muhim ekani yoritiladi. Bu asar orqali Behbudiy xalqni o'ylashga, saboq olishga undagan.

Behbudiy teatrni oddiy ko'ngilochar emas, tarbiyaviy, ma'naviy ta'sirga ega vosita sifatida qadrlagan. Uningcha, sahna orqali xalqqa sodda va tez yetkaziladigan, ko'zni ochadigan, yurakka ta'sir qiladigan haqiqatlarni tushuntirish mumkin edi. Behbudiy teatrni "odamlarning ko'nglini uyg'otuvchi oynadir" deb bilgan. Unga ko'ra, odamlar teatrdagi obrazlar orqali o'zlaridagi illatlarni tan oladilar va tuzatilishga intiladilar. Shu jihatdan teatr uning nazarida ijtimoiy tarbiya vositasi edi.

Behbudiy nafaqat asar yozgan, balki ularni sahnalashtirish, aktyorlar jamoasini tuzish, sahna tashkil qilish ishlarini ham olib borgan. U teatr tomoshalarini maktablarda, masjid verandalarida, jamoat joylarida uyushtirgan. Maxsus teatr binolari bo'lmaganligi sababli u mavjud sharoitda tomosha uyushtirish yo'llarini izlagan. U tomoshalarda yengil ko'chma dekoratsiyalar, an'anaviy kiyimlar va musiqiy asboblardan foydalangan. o'z asarlarini sahnalashtirish uchun ijodiy jamoa tuzgan. O'sha davrda teatr aktyorligi yangi paydo bo'lgan kasb bo'lganligi sababli, u o'qituvchilar, o'quvchilar va ma'rifatparvarlarni spektakllarda ishtirok ettirgan. Ayollar obrazlarini ham erkaklar ijro etgan, chunki ilk bosqichlarda ayollarni sahnaga chiqishiga qarshilik kuchli bo'lgan. Behbudiy spektakllarni shaxsan o'zi rejissyor sifatida sahnalashtirgan. U aktyorlarga harakatlar, talaffuz, ifoda, libos va ovoz borasida yo'l-yo'riq bergan. Tomoshalar boshlanishidan oldin ularning mashqlarini tashkil etgan va sahna tilini shakllantirishda muhim ishlar qilgan.

Behbudiy teatr tomoshalarini e'lonlar, gazetalar va og'zaki targ'ibot orqali keng ommaga yetkazgan. U teatr orqali ilm, ma'rifat, axloq, milliy uyg'onish g'oyalari xalq ongiga singdirmoqchi bo'lgan. Uning bu boradagi amaliy ishlari o'zbek milliy teatrining poydevorini yaratgan.

Teatr sahnalari orqali aholi orasida ma'rifat, zamonaviy bilimlar, milliy g'urur va ozodlik g'oyalari targ'ib qilindi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy – O‘zbek jadid teatri asoschilaridan biri bo‘lib, ko‘plab sahna asarlari yaratgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) – o‘zbek adabiyoti, san’ati va ma’rifatparvarlik harakatining yirik vakillaridan biri bo‘lib, u milliy teatr san’atining rivojida juda katta hissa qo‘shgan. Hamza nafaqat shoir va yozuvchi, balki dastlabki rejissyor, dramaturg va sahna tashkilotchisi sifatida ham tanilgan. U teatrn ma’rifat vositasi sifatida rivojlantirgan. Teatrn xalqni uyg‘otish, savodsizlik va xurofotga qarshi kurashish vositasi deb bilgan. Sahna orqali ilm, axloq, adolat, ayollar huquqlari va tenglik kabi g‘oyalarni targ‘ib qilgan. Tomoshabinlar asarlar orqali hayotiy muammolarni ko‘rib, saboq olishlarini istagan.

Hamza ko‘plab pyesalar muallifi bo‘lib, ularning aksariyati ijtimoiy-satirik ruhda yozilgan:

- “Boy ila xizmatchi” – boylarning zulmi va kambag‘allar hayoti haqida.
- “Zaharli hayot” – ayollar huquqsizligi va ijtimoiy zulmni fosh etadi.
- “Yangi saodat” – ayollarning erkinligi va ta’limi mavzusini yoritadi.
- “Maysaraning ishi” – o‘zbek teatrining ilk komediyalaridan biri, xalq orasida juda mashhur bo‘lgan.

“Boy ila xizmatchi” asarida Hamza o‘sha davr jamiyatidagi sinfiy tafovutni, boylarning kibrini va kambag‘al mehnatkashlarning toza qalbi, mehnatkashligi orqali ustalik bilan fosh etadi. Asarda bir tarafda boy – ochko‘z, yolg‘onchi, pastkash va kibrli obrazda tasvirlanadi. U o‘zidan past odamlarni xo‘rlaydi, xizmatchisiga yomon munosabatda bo‘ladi. Ikkinchi tarafda esa xizmatchi – mehnatkash, halol, sabrli va dono inson sifatida tasvirlanadi. U boyning ustidan kulmaydi, unga qarshi ham chiqmaydi, lekin hayotiy holatlar orqali uning kibrini fosh qiladi. Asar oxirida boyning yolg‘onchiligi, insoniy xislatlardan holi ekanligi ochiladi va tomoshabinlar adolatli xulosa chiqarishadi.

Asardagi asosiy g‘oyalar:

- Kambag‘allik – ayb emas, insoniylik – eng katta boylik.
- Boylik ko‘ngil pokligi bilan o‘lchanmaydi.
- Boylarning ko‘pi mehnatsiz boylik orttiradi, ammo xizmatchilar halol mehnat bilan kun ko‘radi.
- G‘urur va kibr insonni tubanlashtiradi. Degan fikrlarni o‘z ichiga oladi.

Bu asar o‘zbek teatrida sinfiy tengsizlik mavzusini birinchi bo‘lib ko‘targan pyesalardan biri hisoblanadi. Tomoshabinlarga kulgili syujet orqali chuqur ijtimoiy xabar yetkaziladi. Asarda komediya, satira, hayotiy dialoglar va kulgi vositasida jiddiy muammolar yoritilgan.

“Boy ila xizmatchi” – Hamza Hakimzoda Niyoziyning xalq hayotidan olingan, ijtimoiy adolatni targ‘ib qiluvchi, o‘z davri uchun jasorat bilan yozilgan asarlaridan biridir. U bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, milliy dramaturgiyamizning bebaho durdonasidir.

“Zaharli hayot” asari ijtimoiy-satirik dramatik asar bo‘lib, u o‘z davrining ijtimoiy muammolarini ochib berishga qaratilgan. Asarda ayollar huquqlari, ular bilan amalga oshirilgan ijtimoiy adolatsizliklar va xurofotlarning salbiy oqibatlar haqida gapiriladi. Asar xarakteri bo‘yicha juda katta ijtimoiy tashvishlarni o‘z ichiga oladi. Zaharli hayot - bu haqiqatni yashirish, ijtimoiy nohaqliklar bilan yashashning ta’sirini ifodalaydi. Asar davomida ziddiyatli holatlar, ichki kurash va chinakam baxt izlash haqida so‘z boradi.

Syujeti:

Asar bosh qahramoni - Soliha ismli ayol, u o‘ziga baxt izlaydi, lekin jamiyatdagi qat’iy an’analar va xurofotlar uning hayotini “zaharlaydi”. Soliha o‘zini bo‘lib o‘tgan adolatsizliklarga qarshi kurashishga urinishadi, lekin o‘zining ichki kurashida muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Asarda Solihaga qaramay, mehnatkash ayollar va yolg‘on, xurofotga bo‘ysunadigan erkaklar obrazlari ham yaratilib, ular o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilik va ta’sirlar orqali ijtimoiy tahlil o‘tkazilgan.

Asarning asosiy g‘oyalari:

Ayollar huquqlari va tenglik: Asar ayollarni jamiyatda teng huquqli o‘rinni egallashga chaqiradi. Solihaning ijtimoiy nohaqliklarga qarshi kurashi ayollar huquqlarining zarurligini ta’kidlaydi.

Xurofotning salbiy ta’siri: Asarda xurofot va johillik, ayniqsa jamiyatdagi tengsizlikni yanada kuchaytiradigan omil sifatida tasvirlanadi. Xurofotni bartaraf etish zarurati ta’kidlanadi.

Sotsial tengsizlik va adolatsizlik: Asar jamiyatda boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut, xizmatchi va yuqori tabaqalar o‘rtasidagi adolatsizlikni ochib beradi.

Ichki kurash va baxt izlash: Qahramonlar hayotdagi maqsadga erishish uchun o‘zlarining ichki kurashlarini yengib o‘tishga harakat qilishadi, lekin ko‘pincha jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va an’analari ular uchun to‘siqqa aylanadi.

“Zaharli hayot” o‘z zamonasida ijtimoiy muammolarni ochib, xalqni jamiyatdagi nohaqliklarga e’tibor qarata boshlagan. Hamza ushbu asar orqali nafaqat ijtimoiy tengsizlik, balki xurofot va ayollarni ikkinchi darajali inson sifatida ko‘rish kabi muammolarni ham fosh etgan. Asar, satira va komediya orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni kulgili tarzda tanqid qiladi, bu esa tomoshabinlarning e’tiborini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot” asari o‘z zamonining muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarini va muammolarini yorituvchi eng yirik asarlardan biridir. Ayollar huquqlari, xurofot va adolatsizlik masalalarini sahnada ko‘tarib, u jamoatni ijtimoiy o‘zgarishlar va ma’rifatga chaqiradi. Bu asar orqali Hamza o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy hayotni tahlil qilishdagi chuqur fikrlashini ko‘rsatgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” asari 1914–1915-yillarda qissa (hikoya) janrida yozilgan.

Asarning mazmuni:

“Yangi saodat” asarida kambag‘al yigit Olimjonning hayoti orqali ta’limning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatiladi. Olimjon yoshligida ilmga qiziqadi, ammo oilaviy sharoiti tufayli ta’lim olish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. U mehnat qilib, o‘zini o‘qitish imkonini topadi va natijada oilaviy baxtga erishadi. Asarda ilm olish orqali insonning shaxsiy va oilaviy hayotidagi o‘zgarishlar tasvirlanadi.

Asar ma’rifat va ta’limning inson hayotidagi o‘rni haqida muhim xabar beradi va jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farqlarni va ta’limning ularni yengishdagi rolini ko‘rsatadi.

Ba’zi olimlar tomonidan “Yangi saodat” o‘zbek adabiyotida roman janrining ilk namunasi sifatida qaraladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” asari o‘z zamonasi uchun muhim ijtimoiy va ma’rifatparvarlik mazmuniga ega bo‘lib, ta’lim va ilmning inson hayotidagi o‘rni haqida chuqur fikrlar bildiradi. Ushbu asar orqali Hamza jamiyatni ma’rifatga chaqirgan va o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

“Maysaraning ishi” asarida o‘zining ichki kurashlari va maqsadlari bilan yashayotgan Maysara ismli qizning hayoti tasvirlanadi. Asarda uning o‘zini anglash, jamiyatdagi o‘rni va shaxsiy qadriyatlari bilan bog‘liq muammolar yoritiladi. Maysara o‘zining ichki dunyosidagi ziddiyatlarni yengib o‘tishga harakat qiladi, bu esa uning hayotidagi muhim o‘zgarishlarga olib keladi.

Asarning asosiy g‘oyalari:

- Ichki kurash va o‘zini anglash: Qahramonning o‘z ichki dunyosi bilan yuzlashishi va o‘zini anglash jarayoni.
- Jamiyatdagi o‘rin: Shaxsning jamiyatdagi o‘rni va uning ijtimoiy roli haqida fikrlar.
- Qadriyatlar va axloq: Shaxsiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va ularning hayotdagi o‘rni.

Asar turli rejissyorlar tomonidan sahnalashtirilgan va ko‘plab aktyorlar tomonidan ijro etilgan va bu asar jamiyatdagi muammolarni ochib berib, tomoshabinlarga o‘zini anglash va qadriyatlar haqida o‘ylash imkonini beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” asari o‘zining chuqur mazmuni, qiziqarli syujeti va ijtimoiy ahamiyati bilan o‘zbek dramaturgiyasining bebaho durdona asarlaridan biridir. Ushbu asar orqali muallif shaxsning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rni va qadriyatlar haqida o‘z fikrlarini ifodalagan.

Jadid mutafakkirlarining teatr va musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi ulkan bo‘lib, ular orqali Turkiston xalqlari orasida ma’rifat, uyg‘onish, milliy ong va san’atga

bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ushbu harakat zamonaviy o'zbek madaniyatining shakllanishiga zamin yaratdi.

Xulosa

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati tufayli Turkistonda teatr san'ati yangi bosqichda shakllandi. Jadidlar teatrni ma'rifiy vosita sifatida xalqni uyg'otish, savodsizlik va xurofotga qarshi kurashish yo'lida samarali qo'lladilar. Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" asari orqali o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi, Hamza Hakimzoda Niyoziy esa "Boy ila xizmatchi", "Zaharli hayot", "Yangi saodat", "Maysaraning ishi" kabi asarlari bilan milliy teatrni yuksaltirdi. Ular yaratgan asarlar orqali xalq ongida milliy g'urur, adolat, ayollar huquqlari va zamonaviy tafakkur shakllandi. Jadidlarning teatrga qo'shgan hissasi zamonaviy o'zbek madaniyatining rivojida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Qosimova, M. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
3. Abduazimov, A. Mahmudxo'ja Behbudiy – jadidchilik harakatining namoyandasi. – T.: Fan, 2002.
4. Mirvaliyev, M. O'zbek sahna san'ati tarixi. – T.: San'at, 2005.
5. Abdug'afurov, E. Hamza Hakimzoda Niyoziy va o'zbek teatrining shakllanishi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
6. Fitrat, A. O'zbek klassik musiqasi va teatr san'ati haqida maqolalar. – T.: Fan, 1993.
7. Xoldorov, N. Jadidlar merosi va zamonaviylik. – T.: Ma'naviyat, 2015.